

IQTISODIY O'SISH

Muhiddinova Nozima

TDYU Xususiy huquq talabasi

O'sish (iqtisodiyotda) — mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko'paygan miqdorda takrorlanishi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy O'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy O'sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy O'sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy O'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Iqtisodiy O'sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) asos bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishning muayyan davr mobaynida real YAIM hajmining ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy O'sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YAIM hajmining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot bersada, iqtisodiy O'sishni to'liq aks ettirmaydi. Mas, mamlakat aholisining O'sish sur'ati 3% ni, real YAIM ning O'sish sur'ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YAIM hajmi o'sgan bo'lsada, kishilarning daromadlari o'zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy O'sishni to'laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko'rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YAIMning o'zgarishi qo'llaniladi.

Real YAIM hajmining o'zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig'idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM hajmining o'zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YAIM ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o'zaro ta'sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy O'sishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YAIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy O'sishekstensiv o'sish deb ataladi.

Iqtisodiy O'sishning sifat omillari ham mavjud bo'lib, ularga mehnat, kapital va yer (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy O'sish intensiv o'sish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv O'sishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o'sish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy qo'rsatkichlar iqtisodiy O'sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. O'sish sohasida — bandlikning yukobiy dinamikasi; taqsimot sohasida — aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko'rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida — savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste'mol sohasida — iste'molning va noishlab chiqarish jamg'arishning o'sishi shunday ko'rsatkichlarga kiradi. Iqtisodiy o'sishning asosiy ijobiy tomoni — uning ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmasi o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatishidir.

Iqtisodiy o'sishni tiklash bo'yicha amaliy harakatlar rejasi tasdiqlandi

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishni tiklash va tizimli tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasi hamda iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni tiklash va davom ettirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.



Amaliy harakatlar rejasining asosiy maqsad va vazifalarida ko'rsatilishicha, kelgusi davrning asosiy cheklovlari va tahdidlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Mahalliy mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilishining cheklanishi. Buning oldini olish uchun karantin davrida xo'jalik faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganlarga alohida e'tibor berib, korxonalarining xo'jalik faoliyatini tezroq tiklash zarur. Muammoni hal etish iqtisodiyotga moliyaviy mablag'larni, shu jumladan, investitsiya ssudalari bo'yicha qarzlarni uzaytirish va aylanma mablag'lar sifatida "tez pullar"ni ajratishni talab qiladi.

2. Aholi daromadlarining pasayishi, ishlab chiqarish zanjiridagi uzilishlar tufayli ichki talabning cheklanishi. Muammoning yechimi korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini

tiklash, yangi ish o'rinlari yaratish va tiklash, keyin esa aholi daromadlarining o'sishi bilan bog'lik hisoblanadi.

3. Karantin choralari liberallashtirish va koronavirus infeksiyasining tarqalish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlardan odamlarning ko'chib o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun tashqi chegaralarning yopilishi bilan koronavirus infeksiyasining aholi orasida tarqalishi xavfi. Muammoning yechimi ma'lum sanitariya-gigiyena me'yorlari va cheklovlarining saqlanishida (ayniqsa, ommaviy tadbirlar paytida, mamlakat tashqarisidan kirganda va hokazo) va bemorlarga zarur tibbiy yordamni kengaytirishda namoyon bo'ladi. Koronavirusning sayyorada tarqalishining davom etishini hisobga olib, yagona usul - bu o'z vaqtida tashxis qo'yish va samarali davolanishni o'rganish hisoblanadi.

4. Budjet taqchilligining oshishi va tashqi davlat qarzining o'sishi, makroiqtisodiy barqarorlik xavflarining namoyon bo'lishi. Jahon ishlab chiqarishining keskin pasayishi va global iqtisodiy tiklanish istiqbollari to'g'risida noaniqlikning yuqori darajasi ko'plab davlatlarni iqtisodiyotda aholini va yalpi talabni qo'llab-quvvatlash uchun budjet xarajatlarini (shu jumladan, tashqi qarz mablag'lari hisobiga) ko'paytirishga majbur qilmoqda.

Tashqi qarzning o'sishini oldini olish uchun asos yaratish, xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun sharoitni yaxshilash qisqa hamda uzoq istiqbolda inqirozdan keyingi tiklanish iqtisodiyot barqaror rivojlanishining asosiy shartlari hisoblanadi.

Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotni liberallashtirish (jumladan, energiya resurslari bozori) sohasida boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, raqobat muhitini rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va iqtisodiyotda davlat sektorining ulushini kamaytirishni talab qiladi va o'pta muddatli istiqbolda xorijiy investitsiyalarning barqaror o'sishiga yordam beradi.

5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida potensial investorlarning moliyaviy ahvoli yomonlashishi natijasida yuzaga keladigan investitsiyalarga, ayniqsa, tashqi sarmoyalarga cheklovlar. Hozirgi vaziyatda mahalliy investorlarga xorijiy investorlar bilan teng investitsiya sharoitlarini yaratib, mahalliy sarmoyadorlar uchun rag'batlantirish va investitsiya imkoniyatlarini kuchaytirishni talab qiladi.

6. Jahon moliyaviy inqirozi sababli tashqi talabning cheklanishi va o'zbek mahsulotlarini import qiluvchi mamlakatlardagi inqiroz. Rossiya, MDH, mamlakatlari va Xitoydagi iqtisodiy pasayish O'zbekistondan asosiy mahsulotlar: tabiiy gaz, meva-sabzavot, to'qimachilik, elektrotexnika, kimyoviy mahsulotlar, mineral o'g'itlar eksportining fizik hajmini kamayishi, shuningdek, asosiy eksport mahsulotlari: paxta va to'qimachilik, tabiiy gaz, mis narxlarining pasayishi bilan bog'liq.

Muammo eksport geografiyasini kengaytirishni jadallashtirish, Yevropa va Osiyo bozorlariga chiqish, shuningdek, eksport qiluvchilarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirish, jumladan, davlat budjetidan transport harajatlarning bir qismini subsidiya qilish orqali bartaraf etiladi.

7. Bandlik muammosi, jumladan, mehnat migratsiyasi imkoniyatlarining qisqarishi hamda kambag'allikning oshishi O'zbekiston uchun katta tahdid hisoblanadi. Iqtisodiyotning oldida turgan hozirgi turli tahdid va muammoli vaziyatni inobatga olib,

amaliy harakatlar rejasi hukumat, barcha vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun:

- 1) koronavirus pandemiyasining iqtisodiyot va aholi uchun salbiy oqibatlarini bartaraf etish (tiklash nuqtalari);
- 2) tizimli islohotlarni davom ettirish uchun sharoitlarni yaratish;
- 3) iqtisodiyot rivojiga qo'shimcha turtki beradigan yangi imkoniyatlar va zaxiralarni aniqlash ("o'sish nuqtalari").

Amaliy harakatlar rejasini ikki bosqichda amalga oshirish taklif etiladi:

1-bosqich - 2020 yil oxiriga qadar - barqarorlashtirish va tiklangan o'sish.

2-bosqich - 2021 yildan boshlab 5,0-5,5 foiz barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlaydigan, 2020-2021 yillar davomida koronavirus pandemiyasining oqibatlarini moslashtirish bilan tizimli islohotlarni davom ettirishga qaratilgan choralar.

Shu bilan birga, tashqi ta'sirning davomiyligi va pandemiyaning iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sektorlariga (turizm, transport, eksport) ta'sirini hisobga olgan holda, ularning inqirozgacha bo'lgan tendensiyalariga chiqish 2021 yildan o'tishi mumkin

Iqtisodiyotda ijobiy o'sish dinamikasi saqlab qolindi

YaIM 255,3 trln. so'mni tashkil etdi va 0,2% ga o'sdi, o'tgan yilning shu davrida bu ko'rsatkich 6% ga o'sdi. Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymatining o'sishi 0,3% ni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilning birinchi yarmida kichik bo'lsada iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolindi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 255,3 trillion so'mni tashkil etib, o'sish ko'rsatkichi 0,2 %ni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich 6 %ni tashkil etgandi. Sohalarda yalpi qo'shilgan qiymat o'sishi 0,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish dinamikasi sekinlashgan bo'lsa-da, o'sish davom etmoqda. Ushbu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasida 2,6 %, qurilish xizmatlarida 7,3 %, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tarmog'ida 1,2 %ga oshdi.

Hududlar kesimida YaHM o'sish tendensiyalari bo'yicha Andijon (5%), Navoiy (4.3%) va Namangan (3.1%) viloyatlarida yuqori rivojlanish ko'rsatkichlriga ega. YaIM

strukturasini qaraydigan bo'lsak yaratilgan qo'shilgan qiymatning 24,0 %i qishloq xo'jaligida, 37,7 %i sanoatda va 38.8 %i xizmatlar sohasida yaratildi.

Taqqoslash uchun, qo'shni davlatlar iqtisodiyotlarida retsessiya boshlanganligi qayd etilmoqda. Xususan, Qozog'istonda birinchi yarim yillikda YaIM hajmi 1,8 %ga, Qirg'izistonda esa 5,3 %ga pasaygan. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki hisob-kitoblariga ko'ra, YaIMning yillik pasayishi 9,5-10 %ni tashkil qiladi. Xitoy iqtisodiyoti ikkinchi chorakda 3,2% o'sganiga qaramay, birinchi yarim yillikda jami 1,6 %ga qisqargan.